



**YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi**

**National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO**

O'zbekiston, Toshkent, 100084, Amir Temur shoh ko'chasi, 107 B uy / 107 B, Amir Temur Avenue, Tashkent, 100084, Uzbekistan
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2022-yil 15-iyul № 131/22

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga
Innovatsion rivojlanish vazirligiga
Fanlar akademiyasiga
Ma'lumot uchun: · Tashqi ishlar vazirligiga**

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi nomidan o'z hurmatimizni bildiramiz va e'tiboringizga Tabiiy fanlar sohasidagi YUNESKO/Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofoti 2022-yil tanlovi to'g'risidagi ma'lumotni havola etmoqdamiz.

Mazkur mukofotning asosiy maqsadi YUNESKO tashkilotiga a'zo-davlatlarda alohida shaxslar, institutlar va nodavlat tashkilotlar tomonidan inson hayotini yaxshilanishiga salmoqli hissa qo'shgan ilmiy tadqiqot loyihalari va faoliyatlarini mukofotlashdan iborat. YUNESKO/Ekvatorial Gvineya xalqaro mukofoti 350,000 AQSH dollariga teng bo'lib, tanlovda muvaffaqiyatli qatnashgan uch nomzod o'rtasida teng taqsimlanadi va diplom hamda haykalcha bilan taqdirlanadi.

Mukofotga loyiq nomzodlar xalqaro hay'at tavsiyasi asosida YUNESKO Bosh direktori tomonidan tanlab olinadi.

Tanlovda qatnashish uchun nomzodlar quyidagi havola <http://unesco.org/account-request> orqali onlayn tarzda ro'yxatdan o'tishi hamda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi kotibiyati bilan maslahatlashgan holda hujjatlar taqdim etilish lozim. Har bir a'zo-davlat 5 ta nomzod taklif etishi mumkin.

- ariza varaqasi;
- nomzodning mukofot maqsadlariga qo'shgan hissasi bo'yicha (1000 so'zdan oshmagan) axborot;
- nomzodning ilmiy-amaliy faoliyati bo'yicha qisqacha ma'lumot.
- nomzodning muhim o'nta ilmiy nashrining ro'yxati.

Shu munosabat bilan, tanlovda qatnashishi mumkin bo'lgan nomzodlar bo'yicha ma'lumotlarni YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya kotibiyatini xabardor etgan holda joriy yilning 15-noyabr kuniga qadar tavsiya etishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ilova: 6 varaq.

Bosh kotib

G.Umerova